

LINGVODIDAKTIKANING DOLZARB MASALALARI

mavzusidagi xalqaro konferensiya
materiallari to'plami

I



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“LINGVODIDAKTIKANING DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari to‘plami
(2022-yil 18-may)

Toshkent – 2022

MUNDARIJA

I. ONA TILI TA'LIMI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI

Sirojiddinov Sh.S.	
Kirish so'zi	4
Rahmonqulov A., Jabborov B.	
Til o'qitilishida kommunikativ yondashuv va interfaol usullarni qo'llash	6
Yusupova Tursunoy	
Matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirish.....	12
Mavlonova Klaraxon	
O'quvchilarga matn tuzilishiga doir qoidalarni o'rgatish xususida	15
Abdiraimov Shohruh	
Ona tili ta'limida o'qib tushunish ko'nikmasini baholashning nazariy va metodik asoslari	20
Yuldasheva Shahlo, Jumamuratova Sevara	
Innovatsion til ta'limi sharoitida elektron lingvodidaktikaning ahamiyati.....	37
Hazratqulov Mutallib	
Tasviriy insho xususida	41
Qurbonova Xolbibi	
Ona tilini o'qitishda zamonaviylik	46
To'rabekova Aziza	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda bolalar adabiyotidan foydalanish pedagogik muammo sifatida	49
Abdijamilova Mahfuza	
Matnni o'qish va tushunishning pedagogik-psixologik sifatleri	52
Sharopova Feruza	
Metalingvistik omillarning o'qib tushunishga ta'siri	56
Turg'unova Nilufar	
Lingvistik bilimni kontekst orqali o'qitishda xorij tajribasi.....	61
Egamqulova Kimyoxon	
Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarni hayotiy vaziyatlarga tayyrolash.....	64
Navruzova Xosiyat	
7-sinf o'quvchilarida qo'shma gap shakllarining o'zlashtirilishi.....	67
Xasanova Yulduzxon	
Morfologik bilim berish tamoyillari	73
Avezova Dilnura	
Orfoepik mashq – ko'nikma va malaka hosil qilish asosi	77
Arolova Nafisa	
Lingvodidaktikada psixologik yondashuv	80
Xayriddinova Mohina	
Yozish ko'nikmasini shakllantirishda rivojlantiruvchi usullarning ahamiyati.....	82
Yusupova Aziza	
Til ta'limida integratsiya	87
Mamajonova Navruza	
O'quvchilarda so'z o'zlashtirish masalasining o'rganilishi	90
Xakimova Nilufar	

omonimlarini topish, jumalarning semantik deformatsiyalangan shakllarini hosil qilish kabi topshiriqlardan foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova I.A. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Hilol-nashr, 2020.
2. Elizabeth Tighe. Assessing the direct and indirect effects of metalinguistic awareness to the reading comprehension skills of struggling adult readers. Springer Nature B.V., 2018.
3. Mavlonova K.M. Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish: ped.f.d.,diss. – Toshkent, 2019.
4. Cheryl J.Gowie, Psycholinguistic strategies for improving reading comprehension, The elementary school Journal, Volume 79, № 2. Dec.2015.
5. www.oecd.org/pisa/aboutpisa/

LINGVISTIK BILIMNI KONTEKST ORQALI O'QTISHDA XORIJ TAJRIBASI

Turg'unova Nilufar, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek va turk tillarida lingvistik bilimni o'qitish holati qiyoslab berilgan hamda lingvistik bilimni kontekst orqali o'qitishning muhim jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: konteskt, turk, lingvistik bilim, kompetensiya, yondashuv.

Abstarct

This article compares the situation of teaching linguistics in Uzbek and Turkish languages and highlights the important aspects of teaching linguistics through context.

Keywords: context, Turkish, linguistic knowledge, competence, approach.

Respublikamizda har bir sohani rivojlantirishda xorij tajribasidan unumli foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Xususan, ta'lim tizimini ham takomillashtirishda ilg'or davlatlar tajribasini, ulardagi o'qitish metodikasining ijobiy jihatlari o'rganib milliy metodikamizga tatbiq qilish borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida ham xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, xalqaro aloqalar natijadorligini tahlil qilib borish, hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirish kabi bir qator vazifalar belgilab qo'yilgan.

Milliy metodikani rivojlantirishda ham xorijiy tajribalarni o'rgangan holda, ulardagi o'qitishning samarali usullarini amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda ona tilini o'qitish tizimini takomillashtirish, o'qitishning yangi usullarini joriy etish, rivojlangan davlatlardagi til ta'limining o'ziga xos xususiyatlarini

o'rgangan holda ijobiy tomonlarini amaliyotda qo'llash yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Xorijda til ta'limining o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, darsliklarda, asosan, kontekst bilan ishlashga alohida ahamiyat berilishini kuzatishimiz mumkin. Xususan, bu borada "Turk tili" darsliklarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Ushbu darsliklarida lingvistik bilimlar muayyan mavzular asosida berib boriladi. Darslik bo'limlarga bo'linib, har bir bo'limga alohida mavzu, nom tanlangan. 5-sinfdan 9-sinfgacha tanlangan mavzular deyarli bir xil bo'lib, ulardagi matnlar murakkablik darajasiga, o'quvchining yosh xususiyatlariga qarab tanlanganligiga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

5-9-sinflarda turk tili darslarida o'quvchilar bilan quyidagi mavzular ustida ish olib boriladi:

1. MİLLÎ MÜCADELE VE ATATÜRK. Millat kurashi va Otaturk.
2. DOĞA VE EVREN. Tabiat va koinot.
3. BİREY VE TOPLUM. Birlik va to'plam.
4. MİLLÎ KÜLTÜRÜMÜZ. Milliy madaniyatimiz.
5. VATANDAŞLIK. Vatandoshlik.
6. SAGLIK VE SPOR. Sog'lik va sport.
7. ERDEMLER. Yaxshi fazilatlar.
8. BİLİM VE TEKNOLOJİ. Bilim va texnologiya.
9. ÇOCUK DUNYASI. Bola dunyosi.
10. SANAT. San'at.
11. DUYGULAR. Tuyg'ular.
12. OKUMA KÜLTÜRÜ. Mutolaa madaniyati.
13. KİŞİSEL GELİŞİM. Shaxsiy rivojlanish.
14. ZAMAN VE MEKÂN. Zamon va makon.

10–12-sinflar uchun esa Turk tili va adabiyoti yaxlit darslik sifatida nashr etilgan. Darslik hikoya, she'r, doston/afsona, roman, teatr, sayohatnoma kabi bo'limlarga bo'linib, har bir bo'limda muayyan janrdagi asarlardan namunalar keltiriladi. Shuningdek, 11–12-sinflarda o'quvchilar maqola, reportaj, tanqid, nutq (monolog) kabilar bilan ham tanishadilar. Darslikdan turk va jahon adabiyotining eng sara namunalari o'rin olgan.

Bizning "Ona tili" darsliklarimiz va "Turk tili" darsliklarining asosiy farqli jihatlari e'tibor qaratadigan bo'lsak, grammatik bilimlarning berilishi bizning ona tilini o'qitish uslubimizdan tubdan farq qiladi. "Turk tili" darsliklarida nazariy qoidalar juda kam, lingvistik kompetensiya asosan matnlar, nutqiy vaziyatlar, mashqlar yordamida shakllantiriladi. Asosiy e'tibor og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishga qaratilganligi sababli grammatik qoidalarga katta o'rin ajratilmagan, o'quvchi mashqlarni bajarish davomida lingvistik bilimlarni egallashi mumkin. "Turk tili" darsliklarida o'quvchi tilshunoslikning barcha bo'limlari bilan tanishtirilmaydi, o'quvchi uchun zarur bo'lgan bilimlarga berib boriladi. O'quvchilar 5-sinfdan 12-sinfga qadar tinish belgilarning qo'llanishi, iboralar, nutqda so'zlarni o'rinli qo'llash, so'z turkumlari gap bo'laklari, to'g'ri yozish qoidalari va boshqa lingvistik ko'nikmalarni egallab boradilar. Quyida 8-sinf "Ona tili" hamda "Turk tili" darsliklarining qiyosini ko'rishimiz mumkin:

8-sinf “Ona tili” darsligi quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘tilganlarni takrorlash.
2. Ijodiy matn. Insho va uning turlari.
3. Sintaksis, ohang va tinish belgilari.
4. Gap.
5. Soda gap sintaksisi.
6. Ikkinchi darajali bo‘laklar.
7. Mustahkamlash darslari.

8. Uyushiq va ajratilgan bo‘lakli gaplar. Gap bo‘laklari bilan aloqaga kirishmaydigan bo‘laklar.

Darslikda mavzular, asosan, bir xil usulda yoritiladi. Mavzuga oid grammatik qoida va mustahkamlovchi mashq va topshiriqlar beriladi. Mashq va topshiriqlarning aksariyati matndan yulib olingan alohida gaplar asosida tuzilgan. Yaxlit, tugal mazmundagi matnlarga asoslangan topshiriqlar juda kam.

8-sinf “Turk tili” darsligi esa quyidagi bo‘limlardan iborat: “Yaxshi fazilatlar”, “Millat kurashi va Otaturk”, “Bilim va texnologiya”, “Zamon va makon”, “Tabiat va koinot”, “Milliy madaniyatimiz”. Har bir bo‘lim ichidan mavzuga oid turli matnlar, savol va topshiriqlar o‘rin olgan. Bo‘limlar 6 qismdan iborat. Dastlabki uch qismda o‘qib tushunish malakasini rivojlantirishga qaratilgan turli matnlar beriladi. Matnlar badiiy asarlardan parchalar, hikoyat, she‘r, ilmiy-ommabop maqola va boshqa turli xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. 4-qismda audiomatn tinglash yoki biror filmdan parcha tomosha qilish ko‘zda tutiladi. 5-qismdan erkin o‘qish uchun matn, 6-qismdan esa bo‘lim yuzasidan umumlashtiruvchi savollar o‘rin olgan.

Misol uchun, 8-sinf darsligining “Vatandoshlik” nomli bo‘limida o‘qish uchun “Xaritada bir nuqta”, “Qalbim Rumeliyada qoldi” hikoyalari, “Yashamoq haqida” she‘ri, “Zaytun yog‘i ishlab chiqarilishi” videoroligi va mustaqil o‘qish uchun matn o‘rin olgan. Har bir matndan keyin o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasini tekshirishga qaratilgan amaliy topshiriqlar, turli krossvord, test, boshqotirmalar mavjud. Mashq va topshiriqlar o‘quvchilarning ham og‘zaki, ham yozma nutqini rivojlantirishga yordam beradi, o‘quvchidan so‘z ma‘nosini izohlash, gap yoki matn tuzish, matnga fikr bildirish talab qilinadi. Nutqiy kompetensiya bilan birgalikda lingvistik kompetensiyani shakllantirishga ham e‘tibor qaratilgan. Xususan, matn yuzasidan berilgan topshiriqlarda matn mazmuniga bog‘liq savollar bilan birgalikda lingvistik bilim berishga yo‘naltirilgan mashqlar ham mavjud. Bo‘lim oxirida esa o‘tilganlarni mustahkamlovchi va umumlashtiruvchi savol-topshiriqlar o‘rin olgan bo‘lib, matnda so‘zlarni to‘g‘ri tanlash, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini farqlay bilishga oid testlar berilgan.

“Turk tili” darsliklarining dizayni ham o‘ziga xos tarzda ishlangan. Darslik turli rangli rasmlarga, illyustratsiyalarga boy. Har bir mavzuga mos suratlar, yozuvchi, shoirlarning portretlari, grafik organayzerlar muntazam ravishda berib boriladi. Bu xususiyat ham darslikning ijobiy tomonlaridan biri sanaladi. Darsliklarning estetik tomondan chiroyli, illyustratsiyalarga boy bo‘lishi o‘quvchida kitobga bo‘lgan qiziqish uyg‘otadi, tasavvurini kengaytiradi hamda ko‘z xotirasining rivojlanishiga yordam beradi.

Albatta, “Ona tili” darsliklarimiz faqat kamchiliklardan iborat degan fikrdan yiroqmiz. Bilamizki, darsliklar ham aynan shu soha mutaxassislari, tilshunos va metodist olimlar tomonidan ishlab chiqiladi. Ulardagi barcha ma’lumotlar ilmiy asoslangan bo’lib, o’quvchi bilishi lozim bo’lgan zaruriy nazariy ma’lumotlar o’rin olgan. Faqat mana shu nazariy qismni o’quvchi yetkazib berish usulini, o’qitishga oid yondashuvni biroz o’zgartirish lozim. O’quvchi grammatik qoidani yodlab olmasdan, o’zi mustaqil ravishda “kashf etishi”ga erishish lozim. Buning uchun esa lingvistik bilimni kontekstda berishga, darsliklarda nazariy bilimlarni muayyan mavzularga bog’lagan holda tushuntirishga, iloji boricha mazmuniy tugalikka ega matnlar bilan ishlashga e’tibor qaratish lozim. Ana shunda ona tili darslarimiz yanada samarali va qiziqarliroq o’tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Qodirov M., Ne’matov H. va boshqalar. Ona tili: o‘rta maktablarning 8-sinfi uchun darslik – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2019.
3. Hilal Eselioğlu, Sıdıka Set, Ayşe Yüsel. Türkçe 8 Ders kitabı – Devlet kitapları birinci baskı, 2019.

ONA TILIVA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI HAYOTIY VAZIYATLARGA TAYYORLASH

Egamqulova Kimyoxon, Namangan viloyati
Mingbuloq tumanidagi 15-maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida hayotiy ko‘nikmalarni “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligidagi matnlar, loyihalar asosida shakllantirish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ona tili va o‘qish savodxonligi, tanqidiy fikrlash, mashq va topshiriqlar, hayotiylik.

Annotation

This article discusses the development of life skills in primary school students based on the texts and projects in the textbook "Mother Tongue and Reading Literacy".

Keywords: mother tongue and reading literacy, critical thinking, exercises and assignments, vitality.

Ma’lumki, o’quvchilarni mustaqil, mantiqiy, tanqidiy fikrlashga o’rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo‘llab, ularga fan asoslaridan chuqur bilim berish hozirgi zamon boshlang‘ich ta’limining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Ta’lim jarayonida o’quvchilar voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o’rgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash